

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.Abdullayeva</b>	
XX asrning 20-yillarida Buxoro me'moriy obidalarining ta'miroti masalasi .....	324
<b>F.Temirov</b>	
Sadriddin Ayniy ijodida Turkiston tarixi masalalari.....	328
<b>I.Naimov</b>	
Ahmad Donish ilmiy merosida islom huquqi masalalari.....	333
<b>R.Rahimov</b>	
Yevropa noshirlik uylari vujudga kelish tarixiga nazar .....	337
<b>D.A.Choriyeva</b>	
Madaniyat sohasida oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar muammosi va yechimlar.....	342
<b>O.V.Mahmudov</b>	
O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimida Ispaniya shaharlarining o'rni: Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviya .....	353
<b>A.A.Hakimov, B.A.Usmanov</b>	
Amir Abdulloning Xorazm yurishi .....	360
<b>N.X.Choriev</b>	
Buxoro Amirligining janubiy hududlarida irrigatsiya tarmoqlarining rivojlanishi .....	365

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>I.Yakubov</b>	
"Modern" o'zbek romanlarida majoziy va xayoliy-parodoksal ifoda .....	368
<b>P.Bakirov</b>	
Turli tizimli tillarda nominatsentrik maqollar mazmun plani .....	373
<b>I.Mannopov</b>	
Yassaviylik adabiyoti tahlili masalasi .....	379
<b>Q.Yo'lchiyev</b>	
Anvar Obidjon lirikasida semiotik xususiyatlar .....	383
<b>J.Eshonqulov</b>	
Hayrat Buxoriy ijodida ijtimoiy hayot va muhit tanqidining badiiy xususiyati .....	388
<b>T.Matyobova</b>	
Tuyg'u va kechinmani kitobxonga "yuqtirish" mahorati.....	394
<b>M.Qurbonaliyeva</b>	
Taqiuddin Muhammad Avhadiy "Arafot-ul-oshiqin" va Mutribiy Samarqandiy "Tazkirat-ush-shuaro" asarlarning qiyosiy tahlili .....	399
<b>I.Eshonqulov</b>	
Tazkiranavislar nuqtayi nazaridan Mirsiddiqxon Hashmatbuxoriy o'rnini anglash .....	405
<b>H.Ne'matova</b>	
Hoji Muinning "Kattaqo'rqon xotiralari" safarnomasi .....	413
<b>X.A.Xaitov</b>	
O'zbek adabiyotida lingvistika asosida kulgi uyg'otish masalasi .....	417
<b>Samadi Nooria</b>	
Maqollarning metodik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari .....	421
<b>A.G.Sabirdinov</b>	
Shuhrat she'rlariga bir nazar .....	427
<b>S.Muminov, Z.Kamoliddinova</b>	
Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida qo'llangan sinonimlarining lingvopoetikasiga doir.....	433

#### TILSHUNOSLIK

<b>Sh.Iskandarova, D.Qo'ldasheva</b>	
Furqat g'azallarida jonlantirishlarning ifodalanishi .....	439
<b>Sh.A.Ganiyeva</b>	
Frazeologik ma'no: kategorial va grammatik ma'no muammolari .....	443
<b>D.Yuldasheva, S.Nishonova</b>	
Maqollarda "bola" kontseptining ifodalanishi.....	447
<b>M.Saminjonov</b>	
Tilshunoslikda nutqiy janrlar va soha qasamlari masalasi.....	450
<b>O.Latipov</b>	
Rus, o'zbek, tojik va ingliz <i>tillarida "dog/it/sag"</i> zoonim so'zining konseptual talqini .....	454

**“MODERN” O‘ZBEK ROMANLARIDA MAJOZIY VA XAYOLIJ- PARODOKSAL IFODA**  
(Nazar Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li yoxud hayot suvi” romani misolida)

**МЕТАФОРИЧЕСКОЕ И ОБРАЗНО-ПАРОДОКСАЛЬНОЕ ВЫРАЖЕНИЕ В**  
**«МОДЕРНИСТИЧЕСКИХ» УЗБЕКСКИХ РОМАНАХ**

(На примере романа Назара Эшанкула «Гёроглы или вода жизни»).

**METAPHORICAL AND IMAGINARY-PARADOXAL EXPRESSION IN “MODERNISTIC”**  
**UZBEK NOVEL**

(On the example of Nazar Eshankul's novel "Gorogly or the water of life").

**Yakubov Islamjon<sup>1</sup>**

**Yakubov Islamjon**

– Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasida professori, filologiya fanlari doktori.

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek “modern” romanchiligida ro‘y berayotgan yangilanish va o‘zgarishlar, xususan antiqahramon yaratish tajribasi yozuvchi Nazar Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li yoxud hayot suvi” romani misolida qiyosiy tadqiq etilgan. Chunki bu asardagi badiiy reallik real voqealardan zinhor kam bo‘lmagan darajada poetik vazifa bajaradi. Muallif odam va jamiyatni anglashga intilar ekan, inson sharaflanmagan, uning sha‘n-shavkati e‘tibor topmagan ijtimoiy muhitni keskin inkor etadi. Haqiqat va adolat izlab sarson-sargardon bo‘lgan adabiy qahramon – N. ning hayot sinovlarini yengishga urinish yo‘lida chekkan iztiroblari misolida vorislik tamoyili unutilgan, takomillashuvdan begona jamiyat qonunlari ustidan istehzoli kuladi. Jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotining hayotiy mohiyatini ko‘rsatadi.

**Аннотация**

В данной статье на примере романа писателя Назара Эшонкула «Гёроглы Яхуд Хаёт Суви» сравнительно-типологическом аспекте исследуется обновление и изменения, происходящие в современных узбекских «модернистических» романах, в частности опыт создания антигероя. Потому что художественная реальность в этом произведении выполняет не меньшую поэтическую задачу, чем реальные события. Стремясь понять человека и общество, автор на примере страданий литературного героя резко отвергает ту социальную среду, в которой не чтут человека и игнорируют его достоинство. Писатель на примере попыток Н. героя преодолеть жизненные испытания саркастически смеется над забытыми и несовершенными законами общества. Он показывает жизненную сущность развития общества и человеческого мышления.

**Abstract**

In this article, on the example of the novel of the writer Nazar Eshonkul "Gorogly Yahud Hayot Suvi", the comparative-typological aspect examines the renewal and changes taking place in modern Uzbek "modern" novels, in particular, the experience of creating an anti-hero. Because the artistic reality in this work performs no less a poetic task than real events. In an effort to understand a person and society, the author, using the example of the suffering of a literary hero N, sharply rejects the social environment in which a person is not honored and his dignity is ignored. The writer, using the example of N.'s attempts to overcome life's trials, sarcastically laughs at the forgotten and imperfect laws of society. It shows the vital essence of the development of society and human thinking.

**Kalit so‘zlar:** janr, syujet, kompozitsiya, milliy xarakter, poetik mahorat, adabiy an‘ana, o‘ziga xoslik, adabiy ta‘sir, adekvat tarjima

**Ключевые слова:** жанр, сюжет, композиция, национальный характер, поэтическое мастерство, литературная традиция, оригинальность, литературное влияние.

**Key words:** genre, plot, composition, national character, poetic skill, literary tradition, originality, literary influence.

**KIRISH**

Taniqli o‘zbek yozuvchisi N.Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li yoxud hayot suvi” [7] romani istiqloq davri o‘zbek romanlarining yetuk namunasi sifatida e‘tiborga molikdir. Asarning syujet voqealari boshlanmasidan oldin: “...hayot suvin izlab o‘tdi Gilgamish”- degan epigraf keltiriladi. Roman “Go‘ro‘g‘li” deb nomlansa-yu “hayot suvi”ni izlashda boshqa dostonga ishora qilishdan qanday estetik maqsad ko‘zlangan?- degan haqli savol tug‘iladi. Bizningcha, yuqoridagi purhikmat satr mazmunida adibning g‘oyaviy-emotsional munosabati aks etgan. Insoniy qadriyatlar poymol

## ADABIYOTSHUNOSLIK

etilishi-yu aldov va yolg' onlarga ishonish ko'nikmaga aylanib, ma'naviy tanazzul yoqasiga kelib qolgan parokanda yurt – epik makonda abadiyatga daxldor bo'lish imkonsizligi ta'kidlangan. Shu bois, tanlangan epigraf o'z badiiy-estetik funksiyasiga ko'ra romanga ochqich vazifasini o'taydi. Chunki u muallif maqsadi haqida muayyan ma'lumot berishi, asar yozilishiga turtki bergan fikr-qarashlarni ifoda etishi, N.Eshonqulning ijod onlaridagi tuyg'u-kechinmalarini ixcham ifoda qilishi jihatidan roman voqeligi haqida ilk tasavvur uyg'otadi.

Yozuvchi odam va jamiyatni anglashga intilar ekan, inson sharaflanmagan, uning sha'n-shavkati e'tibor topmagan ijtimoiy muhitni inkor etadi. Haqiqat va adolat izlab sarson-sargardon bo'lgan N. sarguzashtlari, hayot sinovlarini yengishga urinish yo'lida chekkan iztiroblari misolida vorislik tamoyili unutilgan, takomillashuvdan begona jamiyat qonunlari ustidan istehzoli kuladi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotining mohiyatini ko'rsatadi. Badiiy reallik real voqealardan zinhor kam bo'lmagan darajada poetik vazifa bajaradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Milliy romanning paydo bo'lishi, shakllanishi va takomillashish jarayoni, uning taraqqiyotiga xos yetakchi xususiyatlar, poetik mahorat singari ko'pgina muammolar bir qator adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilgan. Istiqloq davri o'zbek romanchiligining yetakchi xususiyatlari, taraqqiyot tamoyillari adabiy jarayon bilan bog'liq tarzda Z.Pardaeva [10], Sh.Doniyorova [2], I.Yaqubov [12], M.Pirnazarova [11] larning dissertatsion tadqiqotlarida atroflicha darajada tadqiq etilgan. Adabiyotshunos I.Yaqubov tadqiqotlarida N.Eshonqulning romannavislik mahorati haqida muayyan fikr-mulohazalar ilgari surilgan [12] bo'lsa-da, roman maxsus tadqiq etilmagan.

Maqola mavzusini yoritishda kompleks tahlil, kontekstual tahlilning sotsiologik, tarixiy-madaniy, tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik yondashuvlari, shuningdek, komparativistik, biografik va psixologik metodlardan foydalanildi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nazar Eshonqulning "Go'ro'g'li yoxud hayot suvi" romani milliy asoslari, badiiy matn mehvariga yashirilgan mushohada va ko'ngil holi ifodasi nuqtai nazaridan o'ziga xosdir. Romanning "Go'rkov" nomli fasliga kelib, bosh qahramon N. o'zini tiriklayin ko'mib masxara qilayotgan bashariy dunyoga nisbatan g'oyat hafsalasiz munosabatda bo'la boshlaydi. Bu hol yilning yoz va kuz fasllarida uning ko'chaga chiqmay, tarki dunyo qilgan odam singari hamma narsadan ko'ngli sovib qolishida bo'y ko'rsatadi. Bor-yo'qligi bironvga bilinmay umri o'tayotgan N.ning hafsalasizligidan uyi betartib va besarishta makonga aylangan. Bu hol romanda shunday tasvirlanadi:

*"..hech bir ishga qo'li bormas, qo'ygan idishi yoki buyumi joyida qolar, qaytib yig'ishtirmas, xonalar egasi shoshilinch ko'chib ketgan uy kabi to'zg'oq va isqirt edi. N. o'sha yoz soqolini bor-yo'g'i ikki marta, unda ham yuzi ko'rinmay qolgach va nafas olishiga xalaqit beravergach qaychi bilan hafsalasiz qirtishlab qo'ydi. Kir-chirga belangan kiyim-boshining rangi ko'rinmay qolgan, xona tamaki hidiga va qoldig'iga to'lgandi"* [7. 288-289].

Og'ir havodan nafas bo'g'iladi. Ashyolar to'zg'igan, kiyim-boshlar rangsiz va isqirt. Xonadagi bu manzara – parallel tasvir bo'lib, ifodalanayotgan holatni dalillovchi o'ziga xos illyustratsiya sifatida N.ning xufton bo'lgan yuragini tamsil qilib keladi. Chunki N.Eshonqul fikr tasdig'i uchun misolni qahramonning o'sha kezda zulmatga burkangan hayot tarzi, xufton kayfiyatiga monand tanlagan. Bunday ifoda yo'sini milliy romanchiligimiz uchun tamomila yangilik emas. Masalan, U. Hamdamning "Muvozanat" romani personajlaridan biri Ergashning bir xonali "badbo'y kulba"si "mog'ori chiqib ketgan, ipirisqi" o'rindiqlari va "juldur" holati ham shu qahramon achchiq taqdirini tamsil qilib kelgan edi. Adib uy va undagi jihozlarni qalbini yoritib turgan ruhiy "chirog'i" so'ngan, hayot qiyinchiliklari butkul mahv etgan miskin kimsa taqdiriga o'xshatadi. U.Hamdami: "Yusuf eski divanda, hatto ko'cha kiyimini ham yechmay, xurрак otib yotgan Ergashga qarab o'tirganча, o'z kelajagi haqida ichi sidirilib alam bilan o'yardi" [9. 108],- deb yozadi. Bunday alamli o'ylar Yusufni Ergash yanglig' mahv bo'lmaslik, taqdirini keskin o'zgartirishga undashi ayrim maqolalarimizda batafsil yoritilgan [3.160].

N.da xona derazasini lang ochib, uyning havosini yangilash istagi yo'q ekan, demak uning ichki ruhiy holatida moddiy dunyo adolatsizliklariga moslasha olmaslik, ikkilanish sodir bo'lmoqda. Yozuvchi bu evrilishni o'quvchiga darrov oshkor etmaydi. Aksincha, xo'rlangan kishining zavolli hayoti tamsiliy ifodasini yanada chuqurlashtiradi. Jumladan, N.ning o'z ichki "men"i bilan yuzlashish

jarayoni tamsil sifatida qo'llangan "itlarning mungli nidosini tinglash" tarzida tasvirlanadi. Qahramon dastavval, bu mungni go'yo tashqari – zohirdan eshitadi:

*"Itlar uvlar ekan, N. o'zining ichida ham nimadir uvlab yuborayotganini sezib qolardi. Endi u itlarning uvlashini qo'msab chiqar, o'zi bilan itlar orasida qandaydir bog'lanish paydo bo'lganini sezardi. Bu bog'lanish uning zavolga yuz tutgan hayotiga shunchalik joziba bag'ishlardiki, endi u bir paytlardagi kabi o'z taqdirining adolatli hal qilinishini emas, itlarning uvlashini kutib yashardi"* [7. 37].

Ko'rinadiki, o'sha yovvoyi ohang ko'ngilga bu qadar yaqin ekani ilg'anishi bilan xona (ko'ngil)ga yangi havo kirib keladi. Boshqacha aytganda, ko'ngil nigohi botinga yo'nalishi hamon, N. hayotida ham o'zgacha mazmun va joziba paydo bo'ladi. Shubhasiz, N. o'z botinida uyg'onib, butun vujudini chulg'ab olayotgan bu his-tuyg'u nima ekanini da'atan anglab yetolmaydi. Biroq, bu hol uning hayot tarziga aylangach, zimiston qa'ridagi vaziyat tubdan o'zgaradi: *"...itlar uvlashi bilan uning vujudi qizib, tanasi olov bo'lar, yuragida yovvoyi bir shavq uyg'onar, ichida hamma narsani tilka-pora qilish, badbo'y hidlardan mast bo'lish istagi uyg'onar, ba'zi kechalari u bu istak oldida ojiz qolib tanasini tishlab tashlar, yelkalaridan oqayotgan qonni ko'rib, battar quturib ketar va bo'g'zidan xo'rlik kabi yovvoyi bir uvlash o'tilib chiqardi. N. itlarga qo'shilib, asta-sekin uvlashni o'rgandi"* [7. 38].

Kitobxon zohir va botindagi sadolar o'zaro qo'shilib ketgan sari, personaj vujudida paydo bo'layotgan yengillik, baxtiyorlik va yirtqichona bir shafqatsizlikni tushuna olmay qiynaladi. Chunki musibatli tuyg'ular hayvoniy tilda ifodalanadi. Odamning it yoxud bo'riga o'xshab uv tortishi, aslida, uning hasrat-iltijosi, qahr-g'azabi haddi a'losiga yetgan alam va xo'rliklarining botinidan cho'ziq yig'i bo'lib o'tilib chiqishidir. Agar it va odam munosabatlari uyg'unligi teran hamdardlik negizida yuzaga kelishiga diqqat qilinsa, tashqari (egasiz it) va ichkari (toptalgan ko'ngil)ni ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan begonalik hissi birlashtirib turgani oydinlashadi.

Demak, jamiyat tashlandiq holga keltirgan N. musibatlari arimagan, aksincha tobora og'irlashib bormoqda edi. Aslida, It ijtimoiy xo'rlikning majoziy ko'rinishi bo'lib, bu evrilish odam bo'lib yashash uchun hech qanday imkoniyat qolmagani, jamiyat itday xor qilgani uchun N.da shu qiyofaga kirishdan o'zga chora yo'qligini bildiradi. Ayni paytda, yuqoridagi tasvir beixtiyor tarzda, F.Kafkaning "Evrilish" hikoyasidagi hashorat-odam Grigor Zamza taqdirini ham esga soladi. Xullas, N.Eshonqul ijtimoiy chiqitning xayoliy manzarasini chizgach, tashqaridagi it tasviriga ortiq ehtiyoj qolmaydi:

Ijtimoiy tartiblarda uchrovchi ayrim "nozik" jihatlar, xususan, sud va ijro tizimida mavjud turfa nayranglardan bexabar N. hukmda "istisno holat" bo'lishi mumkinligiga ishonib qattiq adashadi. "Anglashilmovchilik" tufayli 3-29-raqamli qabrga ko'milgan murdani "chiqarib olish"ga rozi bo'ladi. Jasadni tekshirib ko'rib adolat qilish haqidagi kutilmagan xabar hayot sinovlariga dosh berolmay, g'oyat tushkun kayfiyatda qolgan kishida yana umid nishonasini uyg'otishi tabiiy. N. shum taqdir sha'niga yopishtirgan mash'um tamg'ani uloqtirib tashlashni istaydi.

Afsuski, uning eng katta xatosi barcha imkoniyatlarini to'la ishga solmagani, o'zgalarga ortiqcha ishonganida emas, balki mavjudligini isbotlashga uringanida edi. Maynavoz hukmbardorlar va yaltoqi ijrochilarga aldanib, so'nggi umidlaridan ham mosuvo bo'lish N. uchun behad og'ir musibat edi. *"Kecha ertalab Janubiy Temir yo'lining 8-bekatida poezd ostida qolgan jasad topildi. Jasadga qarab kimligini aniqlab bo'lmasdi. Faqat marhum cho'ntagidan chiqqan hujjatgina uning shaxsini aniqlashtirdi. Bu odam S. tashkilotining katta xodimi N. bo'lib chiqdi"* — degan mazmundagi bir qarashda cho'pchaknamo tuyulgan gazeta xabaridan boshlangan badiiy voqelik rivojidan so'ng chiqarilgan bu zalvarli xulosa yaqin o'tmishning ko'nikilgan hayot tarzini ifoda etadi. Mahkumga o'z qabrini qazdirib, shu lahadga nafaqat jismi, balki butun orzu-umidlarini ham dafn etish, aldov, yolg'on va lafzsizlik odatiy hayot tarziga aylangan jamiyatda haqsizliklarga chora topish imkonsiz edi.

Shuning uchun adib roman so'nggida o'zini haqoratlashgani, bu dunyoda hech qaysi ish uning ixtiyori bilan sodir bo'lmagani, sodir bo'lmasligini anglagan N.ni yo'lovchilar o'rtasida, chirog'i sinib qolgan simyog'ochga suyangan holda juda horg'in, ojiz va notavon qiyofada tasvirlaydi. N. o'z kuchini behuda sarflagani, butun quvvatini so'rib bo'lishganini harqancha tushunib yetmasin, kurashaverib holdan toygan, hech narsaga yaramaydigan holga kelib qolgandi. O'zining mavjudligini bildirish uchun bor kuchi, his-hayajoni, jismoniy va ma'naviy qudrati, umid-orzularini

## ADABIYOTSHUNOSLIK

behuda sarflab bo'lgan, qurigan daraxt kabi holsiz, madorsiz jasadga aylangan, ishtiyoqi so'ngandi. U nafaqat yashash va ishlash, balki xayol qilishga ham madorsiz edi. Faqat uxlashni, uzoq-uzoq uxlashni istardi: *"Meni adoi tamom qilishdi, – deb o'yladi u, – endi hatto anavi bekatgacha ham yurib borolmayman"* [7. 43].

Haqiqatan ham u tun qorong'isida bekatga tomon emaklab borarkan, mislsiz horg'inlik oyoqlaridan tepaga qarab o'rlab boraveradi. O'ziga nisbatan ham achchiq kinoya, piching va istehzo bilan qaray olgani uchun N. dunyoning shodlik va xavotirga to'la barcha shovqinlari, olomonning bemaqsad intilishlariga etak silkib, boshlangan barcha voqealar aro izchil tartibni ta'minlash, barini muayyan izga solish va bu ayanchli qismatiga xotima yasashga qaror qiladi. O'ziga yozilgan hukmni ijro etadi.

Darhaqiqat, N. o'zini poyezd tagiga tashlab, qop-qora bo'shliq ichra g'oyib bo'ladi. U o'zining inson sifatida mavjud ekanini tan olmagan jirkanch va tuban muhitning hukmini tasdiqlaydi. Bu bilan yozuvchi: *"Yaqin o'tmishda biz boshimizdan kechirgan ma'naviy tanazzul nosobit e'tiqod, turlanish – barchasi shaxssizlik oqibatidir"* [7. 8], degan nazariy konsepsiyasiga sodiq qoladi.

N. ning butun aybni o'zidan qidirishi halol bir kishining insonni xo'rllovchi jamiyatni la'natlashi tarzida qaralishi mumkin. Muammoning qiziq jihati shundaki, roman finaliga kelib N.Eshonqulning jamiyat illatlarini fosh qilish orqali estetik ta'sirchanlikni orttirish niyati kitobxonni ruhan ancha toliqtiradi. Bu hol bejiz bo'lmay, ijodiy o'zlashtirish jarayonida F.Kafkaning bevafo dunyo oldida insonning fojiona ojizligini poetik shaklda ifodalash uslubiga ergashish oqibatida kelib chiqadi. Jumladan, F.Kafkaning "Amerika" romanida pokiza insoniy tuyg'ular sohibi bo'lgan Karl Rossman ijtimoiy muhit tomonidan yanchib tashlanadi. Chunki ikki o'rtada teran begonalik tuyg'usi mavjud edi. *"Uning (ya'ni K.Rossman, – I.Ya.) aldov, zo'rlik, yovuzlik asosiga qurilgan bu ayovsiz muhitda tirik qolishi ham mumkin emasdi"* [4. 393], — deb yozadi adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev. "Qo'rg'on" romanidagi K. jamiyat timsoli sifatida talqin etilgan qo'rg'onga kirib yashash maqsadiga erisha olmaydi. Adoqsiz urinishlaridan so'ng bunday huquqqa erishganida esa, u behad holdan toyib o'lim to'shagida yotgan edi.

F.Kafkaning fikricha, alohida odam jamiyatni tushunishi, uning tartiblarini anglashi va muhitning barcha sharoitlariga adaptatsiya qilib yashayverishi mumkin emas. F.Kafka ijtimoiy hayotda biror ezgulik nishonasini ko'rmaydi. Hamisha jamiyat va vaziyat qurboni bo'luvchi inson umrida tayinli ma'no bo'lishiga ishonmaydi.

Yozuvchi "Jarayon" romanida Yozef K.ni ijtimoiy muhitning g'aroyib va tushunarsiz sinovlari ichidan olib o'tadi. Uni himoya qilishi lozim bo'lgan qonun tomonidan mislsiz jabr ko'rgan, qamoq va ozodlikni farqlay olmagan qahramon taqdiri misolida ijtimoiy shafqatsizlik dahshatlarini ko'rsatib beradi.

Ko'rinadiki, F.Kafka uchun voqealarning izchil mantiqiy ifodasi emas, ekstremal vaziyatga tushib qolgan inson ruhiy iztiroblarini tuyush, o'sha kechinilgan chigal va murakkab tuyg'ularni ko'rsatish muhim. Shuning uchun, yozuvchi romanlarida voqelik qahramon botiniga ko'chadi va inson tasvir markaziga chiqadi. F.Kafka mavjud voqelik va insonni ma'nan tobe qilishga intiluvchi, begonalashgan muhit qarshisida qo'rquv va xavotirga tushgan qahramonlarning iztirob-kechinmalarini badiiy tasvir vositasiga aylantiradi.

Darhaqiqat, o'sha manzara-majozlarda inson idrokini uyg'otishga, o'zlikka, jamiyat va borliqqa tiyran nigoh bilan boqishga undovchi hikmat mujassam. "Go'ro'g'li" romanidagi N. ning hissiy isyoni zamirida ham insonni ozod ko'rish istagi yashiringan. Buni teranroq anglash uchun adib timsolli konstruksiyadan bunyod etgan badiiy qasrga kirish, ya'ni romanni sinchiklab o'qish lozim.

"Go'ro'g'li" romanida hozirgi o'zbek romanlarida kuzatilayotgan ro'yo bilan reallik, xayolot bilan hayotning aralash tasvirlari faol qo'llanilgan. Biroq asarning xotimasi Sharq kitobxoniga u qadar o'tirishmaydi. Chunki N. adoyi tamom bo'lgani, endi muhitga qarshi kurashishga madori yetmayotganidan noliydi. Ya'ni azob chekib yashayotganini biladi va o'z hayotiga nuqta qo'yadi.

Romandagi N. taqdiri muayyan jihatlari bilan A.Kamyuning "Begona" qissasidagi Mersoni esga soladi. Zotan, o'limga hukm qilingan Merso qissa so'nggida tavba-tazarrudan butkul bosh tortadi. Har bir toshiga uqubat singgan qamoqxona devorlari ortidagi mahbus Merso Yaratganning marhamatidan umidvorlik, unga ishonch tuyg'usidan begona. Ilohiy hayotni behuda xomxayol deb biladigan, botin nigohi so'qir, real dunyo kishisi bo'lmish Merso uchun Oллоh jamolidan ko'ra

Marining yuzi qadriroq. Shuning uchun ham e'tiqod kishisi bo'lmish kashishga nisbatan: "...uning o'ziga ishonishi ayol sochining bittagina tolasiga arzimaydi" [1. 82]., degan hukm chiqaradi.

Ijtimoiy axloqiy qadriyatlardan yuksakda turib, ko'ngil sokinligini qo'lga kiritgan Merso zinhor o'zini adashgan banda sanamaydi. Chunki uning ko'nglida qadriyatlarga mehr emas, balki asov va g'alayonli g'azab hukmron. Bu jihatdan Kamyu qarashlari Nisshega nihoyatda yaqin turadi. Shuning uchun ham Merso barcha odamlar o'linga mahkum qilingan hayotda yashashda mazmun ko'rmaydi. Aynan o'sha ma'nisizlik uning hayotiy tamoyiliga aylanadi.

Ko'rinadiki, Kamyu odamlararo mehr-oqibatning ko'tarilishi ularni bir-biridan begonalashtirib, har bir inson yolg'izlanib qolishi jarayoni – G'arb jamiyati fojiasini mahorat bilan ko'rsata olgan. F.Kafkaning "Jarayon" romanida esa, insoniyat ma'naviy olamining tayanch nuqtasi bo'lgan ruhoniylar obrazi murdorlik ilinjida jamiyat ustunlarining tegirmoniga suv quyib, K.ni adashganiga ishontirmoqchi bo'ladi. To'g'ri, "Go'ro'g'li"da qamoqxona voqealari uchramaydi. Lekin, hatto go'rkov ham insonga kuch va ruh bag'ishlashga qodir kimsa emas, balki iblis malayi ekani N.ni kimdandir ruh olishdan mahrum, jon saqlashdan umidsiz, himoyasiz qilib qo'yadi. Bunday ekstrem vaziyatga T.Murodning "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanida ancha xarakterli yechim topilgan edi. Bir umr sig'ingan e'tiqodi bilan ham, shariat ahkomi bo'yicha ham o'lib bo'lmasligini bilgan Botir firqa mushtipar va notavon kimsa sifatida "marhumlar shahri" hamda "tiriklar shahri" o'rtasida muztar holatda qolib unsiz-unsiz yig'laydi. Zinhor tushkunlikka tushmaydi. O'zini o'ldirish fikridan tezda qaytadi. Chunki uni Yaratgan rahmatidan umidvorlik, kafforat ilinjidagi istig'for tuyg'ulari yetaklab yuradi.

### XULOSA

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, "Go'ro'g'li" romani adibning XX asrning 90-yillaridagi ijodiy kayfiyati, estetik qarashlariga xos belgilarni tashiydi, degan xulosaga kelish mumkin. Binobarin, roman o'zida adib yaxlit estetik prinsiplarini emas, ijtimoiy dardiga ifoda va imkon izlagan izlanishlar davriga xos muayyan bosqichni aks ettiradi.

Ko'rinadiki, "Go'ro'g'li" romanida XX asrning fojiali hodisalari, asosan, to'g'ri aks ettirilgan. Muallif roman qahramoni N. taqdiri orqali muhit tug'dirgan fojidan chiqib ketish yo'llarini iztirob bilan izlagan.

Ammo yozuvchi roman nihoyasida oxirgi tayanch nuqtani topolmagan. Adib insondagi ruhiy kuch orqali Xudoning insonga bo'lgan ulug' muhabbatini ko'rsatishga erisholmagan. Bu esa ijodkor Sharqning qadimiy ta'limotlariga emas, balki G'arb falsafasiga ergashganligi bilan izohlanadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alber Kamyu. Begona. Qissa va roman. – Toshkent: Yozuvchi, 1995.
2. Doniyorova Sh. Istiqloq davri o'zbek romanlarida milliy ruh va qahramon muammosi: Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2012;
3. Yoqubov I. Muvozanat ehtiyoji va iztirobi / Ulug'bek Hamdam. Muvozanat. Roman. – Toshkent, 2007. – B.261-271
4. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
5. Matyakubova T. Lyric Experience in Gafur Gulam's Poetry. Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT. 2022, Vol 2 No.1
6. Matyoqubova T. G'afur G'ulom she'riyatida lirik qahramon ruhiyati tasviri. "World of Philology" Scientific Journal Volume 1 Issue 2 / December 2022. – B.12-18
7. Nazar Eshonqul. Go'ro'g'li yoxud hayot suvi. Roman. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2018
8. Nazar Eshonqul. Mendan "men" gacha. – Toshkent: Akademya, 2006.
9. Ulug'bek Hamdam. Muvozanat. Roman. – Toshkent: Sharq NMAK, 2007.
10. Pardaeva Z. Hozirgi o'zbek romanchiligining taraqqiyot tamoyillari: Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2003;
11. Pirnazarova M. Hozirgi o'zbek romanlarida uslubiy izlanishlar (O.Muxtor, X.Do'stmuhammad, U.Hamdam, T.Rustam romanlari misolida): Filol. fan. nomz... diss. – Toshkent, 2006.
12. Yakubov I. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi. Filol. f. d-ri. diss. – Toshkent: 2018
13. Yakubov I. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels. Journal of Critical Reviews (ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 16, 2020) , 2903-2910
14. Yakubov I. "Mini-roman" yaratish yo'sinidagi eksperimental izlanishlar. "World of Philology" Scientific Journal Volume 1 Issue 2 / December, 2022. – B.5-11